




TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RESPUBLIKA OAK JURNALI



2026, 3-SON

ISSN 2181-4201

<https://etjournal.buxdpi.uz>



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2026

IJTIMOIIY FANLAR

JINOYATCHILIK KELIB CHIQISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY SABABLARI, MA'NAVIY-AXLOQIIY OMILLARI

Xudoyberdiyeva Dilnoza Farxodovna,

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrası, Huquq ta'limi yo'nalishi
1-kurs magistranti

dilnozaxudoyberdiyeva0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jinoyatchilikning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy sabablar hamda ma'naviy-axloqiy omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, jinoyatchilikning yuzaga kelishida ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, oilaviy muhit, ta'lim-tarbiya va ma'naviy qadriyatlarning o'rni yoritib beriladi. Tadqiqot natijasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy profilaktika choralarini kuchaytirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, huquqbuzarlik, profilaktika, ishsizlik, kambag'allik, oilaviy tarbiya, ijtimoiy nazorat.

SOCIO-ECONOMIC CAUSES AND MORAL-ETHICAL FACTORS OF THE EMERGENCE OF CRIME

Dilnoza Farxodovna Xudoyberdiyeva,

First-Year Master's Student, Law Education Program,
Department of Social Sciences, Bukhara State Pedagogical Institute

dilnozaxudoyberdiyeva0@gmail.com

Annotation: This article scientifically analyzes the socio-economic causes and moral-ethical factors contributing to the emergence of crime. It examines issues such as unemployment, poverty, social inequality, migration processes, family-related problems, shortcomings in the education and upbringing system, and the weakening of moral values that may lead to criminal behavior in society. The article also highlights the role of the state, family, and civil society institutions in preventing crime. Based on criminological approaches, the study reveals the interrelationship between social conditions and individual behavior, emphasizing the importance of comprehensive preventive measures aimed at reducing crime and strengthening social stability.

Keywords: crime, criminology, socio-economic factors, moral and ethical factors, unemployment, poverty, legal awareness, legal culture, crime prevention, social control.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ И МОРАЛЬНО- ПРАВСТВЕННЫЕ ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ

Худойбердиева Дилноза Фарходовна,

магистрант 1 курса направления «Правовое образование»,
кафедра социальных наук,

Бухарский государственный педагогический институт

E-mail: dilnozaxudoyberdiyeva0@gmail.com

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ социально-экономических причин и нравственно-этических факторов, способствующих возникновению преступности. Рассматриваются такие проблемы, как безработица, бедность, социальное неравенство, миграционные процессы, семейные проблемы, недостатки системы образования и воспитания, а также ослабление нравственных ценностей, влияющих на формирование преступного поведения в обществе. Кроме того, раскрывается роль государства, семьи и институтов гражданского общества в предупреждении преступности. На основе криминологических подходов выявляется взаимосвязь между социальными условиями и поведением личности, а также обосновывается необходимость комплексных профилактических мер, направленных на снижение уровня преступности и укрепление общественной стабильности.

Ключевые слова: преступность, криминология, социально-экономические факторы, нравственно-этические факторы, безработица, бедность, правосознание, правовая культура, профилактика преступности, социальный контроль.

KIRISH

Jinoyatchilik har qanday jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, iqtisodiy taraqqiyoti va ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. Uning kelib chiqishi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, jinoyatchilikni faqat huquqiy nuqtai nazardan baholash yetarli emas. Zamonaviy kriminologiya fani jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarini iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik hamda ma'naviy omillar bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi.

Bugungi globallashtirish sharoitida aholi turmush darajasi, iqtisodiy tengsizlik, migratsiya jarayonlari, oilaviy munosabatlarning zaiflashuvi va ma'naviy qadriyatlarning yemirilishi jinoyatchilikning ko'payishiga sabab bo'layotgan muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini kompleks o'rganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti

Tadqiqot obyekti sifatida jinoyatchilikning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy munosabatlar tizimi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa jinoyatchilikning shakllanishiga sabab bo'luvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy omillarning mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda jamiyatdagi kriminogen vaziyatga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- **Tizimli tahlil metodi** – jinoyatchilikka ta'sir etuvchi omillarni yagona tizim sifatida o'rganish uchun;
- **Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi** – milliy va xorijiy kriminologik yondashuvlarni solishtirish uchun;
- **Statistik tahlil metodi** – jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligini aniqlash uchun;
- **Mantiqiy va ilmiy umumlashtirish metodi** – nazariy qarashlarni tizimlashtirish hamda xulosalar shakllantirish uchun;
- **Sotsiologik yondashuv metodi** – oilaviy tarbiya, huquqiy madaniyat va ma'naviy muhitning jinoyatchilikka ta'sirini baholash uchun.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jinoyatchilikning yuzaga kelishida iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

- ishsizlik va daromadlar yetishmasligi mulkiy jinoyatlar sodir etilish xavfini oshiradi;
- ijtimoiy tengsizlik shaxslarda norozilik va deviant xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'ladi;

- oilaviy nazoratning sustligi va nosog'lom oilaviy muhit voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kuchaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi;

- huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining pastligi fuqarolarning qonunga itoatkorlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- ma'naviy qadriyatlarning zaiflashuvi shaxsning ijtimoiy mas'uliyat hissini kamaytirib, jinoiy xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi.

Tahlillar natijasida jinoyatchilikning oldini olishda faqat huquqiy ta'sir choralari qo'llash yetarli emasligi, balki aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tarbiyani mustahkamlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish zarurligi aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Jinoyatchilikning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy omillar yagona tizim sifatida kompleks tahlil qilindi.

2. Jinoyatchilikning shakllanishida iqtisodiy muammolar va ma'naviy qadriyatlar inqirozining o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

3. Oilaviy tarbiya, huquqiy madaniyat va ma'naviy muhitning kriminogen vaziyatga ta'sir mexanizmlari tizimlashtirildi.

4. Jinoyatchilik profilaktikasida ijtimoiy-iqtisodiy choralarni ma'naviy-ma'rifiy ta'sir mexanizmlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

5. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda "kompleks profilaktika modeli"ning ustuvor yo'nalishlari taklif etildi hamda ularning amaliy ahamiyati asoslandi.

Jinoyatchilik har zamonda turli ko'rinishlari, zamonaviy turlari bilan hayotimizga kirib kelmoqda. Jinoyat sodir bo'lishining ko'plab sabablari mavjud Jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari ham mavjud bo'lib quyidagi hollarda jinoyatchilik kuchayishi mumkin. Jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri **ishsizlik** hisoblanadi. Doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan shaxslarning noqonuniy yo'llar orqali moddiy manfaat orttirishga moyilligi kuchayadi. Ayniqsa, yoshlar orasidagi ishsizlik mulkiy va iqtisodiy jinoyatlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Kambag'allik ham jinoyatchilikning kuchayishiga ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Moddiy ehtiyojlarning qondirilmashligi ayrim fuqarolarni noqonuniy faoliyatga undashi mumkin. Shu bilan birga, kambag'allik ta'lim olish, kasb egallash va ijtimoiy integratsiyalashuv imkoniyatlarini cheklaydi. Keyingi o'rinda **Ijtimoiy tengsizlik** turadi. Jamiyatdagi daromadlar tafovutining keskin ortishi ijtimoiy norozilik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Ayrim shaxslar o'zlarini jamiyatdan chetda qolgan deb his qilishlari natijasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lib qoladilar. Kriminologik tadqiqotlar ijtimoiy tabaqalanish yuqori bo'lgan hududlarda jinoyatchilik darajasi ham yuqoriroq bo'lishini ko'rsatadi. Shaharlar aholisining keskin ko'payishi, nazoratsiz migratsiya hamda aholi zichligining ortishi jinoyatchilik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi mumkin. Migrantlarning yangi ijtimoiy muhitga moslashishdagi qiyinchiliklari, bandlik muammolari va ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi ayrim hollarda huquqbuzarlik sodir etilishiga sabab bo'ladi. Jinoyatchilikning sodir bo'lishida ta'lim va bandlik muammolari ham ta'sir etishi mumkin. Ta'lim darajasi past bo'lgan shaxslar mehnat bozorida raqobatbardosh bo'la olmaydilar. Natijada noqonuniy daromad topish usullariga murojaat qilish xavfi ortadi. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimining samarali ishlashi jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Jinoyatchilikning kelib chiqishida ma'naviy va axloqiy omillar ham muhim o'rin egallaydi. Insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, tarbiyasi va huquqiy

madaniyati uning xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy omillardir.

Oila shaxs kamolotining birlamchi instituti hisoblanadi. Oiladagi nizolar, ota-onaning farzand tarbiyasiga befarqligi yoki salbiy xulq-atvori yoshlarning huquqqa zid harakatlarga moyilligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning muayyan qismi nosog'lom oilaviy muhit bilan bog'liq. Oila shaxsning birinchi ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, insonning dunyoqarashi, xulq-atvori, axloqiy qadriyatlari va huquqiy ongining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli oiladagi muhit va tarbiya jarayoni jinoyatchilikning oldini olish yoki aksincha, uning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ota-onaning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi, nazoratning sustligi yoki tarbiyadagi keskin xatolar bolalarda salbiy xulq-atvor shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda voyaga yetmaganlar huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyil bo'lib qoladilar. Oiladagi doimiy janjallar, ruhiy bosim va zo'ravonlik bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tajovuzkor muhitda ulg'aygan bolalar muammolarni zo'ravonlik orqali hal qilishga odatlanishi mumkin. Agar ota-ona qonunbuzarlik qilsa, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilsa yoki axloqiy me'yorlarga rioya qilmasa, farzandlar ham shu xatti-harakatlarni me'yoriy holat sifatida qabul qilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Oiladagi qashshoqlik, ishsizlik va moddiy yetishmovchilik ayrim hollarda bolalarning noqonuniy yo'llar bilan daromad topishga intilishiga sabab bo'lishi mumkin. Farzandning bo'sh vaqtini nazorat qilmaslik, uning do'stlari va mashg'ulotlariga qiziqmaslik salbiy guruhlar ta'siriga tushib qolish xavfini oshiradi. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning muhim qismi oilaviy tarbiya bilan bog'liq. Sog'lom ma'naviy muhitga ega, ota-onalar va farzandlar o'rtasida o'zaro hurmat hamda ishonch mavjud bo'lgan oilalarda jinoyatchilikka moyillik ancha past bo'ladi. Shu bois jinoyatchilik profilaktikasida oilani mustahkamlash, ota-onalarning pedagogik va huquqiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv sharoitida internet va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ortib bormoqda. Zo'ravonlik, tajovuzkorlik va noqonuniy xatti-harakatlarni targ'ib qiluvchi axborotlar ayrim yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois axborot xavfsizligini ta'minlash va yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi. Jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi salbiy axborotlarga quyidagilar kiradi:

- Zo'ravonlik va agressiyani targ'ib qiluvchi materiallar;
- Jinoyat sodir etishni "muvaffaqiyat" sifatida ko'rsatuvchi kontentlar;
- Firibgarlik va noqonuniy boylik orttirishni targ'ib qiluvchi axborotlar;
- Ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatuvchi materiallar;
- Axloqiy qadriyatlarni inkor etuvchi va qonunga hurmatsizlikni shakllantiruvchi ma'lumotlar.

Shaxs zo'ravonlik sahnalari yoki tajovuzkor xatti-harakatlarni muntazam kuzatganda, bunday holatlarni odatiy va maqbul deb qabul qila boshlashi mumkin. Natijada nizolarni qonuniy va tinch yo'l bilan emas, balki kuch ishlatish orqali hal qilish tendensiyasi shakllanadi. Ayniqsa yoshlar mashhur shaxslar yoki virtual qahramonlarning xatti-harakatlarini takrorlashga moyil bo'ladilar. Agar axborot makonida jinoyatchi obrazlari kuchli, boy yoki muvaffaqiyatli shaxs sifatida tasvirlansa, ayrim yoshlar ularni o'ziga namuna qilib olishi mumkin. Salbiy axborotlar ta'sirida shaxsda qonunlarga nisbatan hurmatsizlik shakllanishi mumkin. Bu esa huquqiy ong va huquqiy madaniyatning pasayishiga olib keladi. Oqibatda ayrim huquqbuzarliklar oddiy hol sifatida qabul qilina boshlaydi. Voyaga yetmaganlar ruhiyati hali to'liq shakllanmaganligi sababli ular axborot ta'siriga nisbatan sezgirroq bo'ladilar. Shu bois

internetdagi zararli kontent, kiberbulling, virtual zo‘ravonlik va noqonuniy guruhlar faoliyati yoshlar orasida huquqbuzarlik xavfini oshiradi. Kriminologiya fanida jinoyatchilikning kelib chiqishi ko‘pincha ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Salbiy axborot ham ana shu muhitning muhim elementi hisoblanadi. U bevosita jinoyatning yagona sababi bo‘lmasa-da, boshqa omillar – oiladagi muammolar, nazoratning sustligi, ishsizlik, ma’naviy bo‘shliq va salbiy do‘stlar ta’siri bilan qo‘shilganda jinoyatchilik xavfini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, oilaviy nazorat sust bo‘lgan o‘smir internet orqali zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni muntazam kuzatsa, unda agressiv xulq-atvor shakllanish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Demak, salbiy axborot ko‘pincha jinoyatchilikning bevosita emas, balki vositali sababi sifatida namoyon bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda jinoyatchilik tarkibida yoshlarning ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda. Bunga ishsizlik, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etmaslik, salbiy axborot ta’siri, oilaviy nazoratning sustligi va huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi sabab bo‘lmoqda. Ayollar jinoyatchiligi esa nisbatan kamroq ulushni tashkil etsada, oilaviy-iqtisodiy muammolar, ajrimlar, moddiy qiyinchiliklar va ijtimoiy himoyaning ayrim kamchiliklari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. 2024-yilda O‘zbekistonda jami **132 298 ta jinoyat** qayd etilgan. Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, sodir etilgan jinoyatlarning **59,4 foizi yoshlar tomonidan** amalga oshirilgan. Eng ko‘p uchraydigan jinoyatlar o‘g‘rilik, firibgarlik, yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlar va giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq huquqbuzarliklardan iborat bo‘lgan. 2025-yilning birinchi choragida sudlar tomonidan **15 369 nafar shaxs sudlangan** bo‘lib, ulardan: **6 066 nafari yoshlar; 702 nafari voyaga yetmaganlar; 1 708 nafari ayollar** hisoblangan. Oliy sud ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar tomonidan eng ko‘p sodir etilgan jinoyatlar:

- firibgarlik;
- o‘g‘rilik;
- yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini buzish;
- giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlardan iborat.

2025-yilda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni **4 167 tadan 3 214 taga kamaygani** qayd etilgan. Bu ayollar jinoyatchiligining pasayish tendensiyasini ko‘rsatadi. Demak, zamonaviy kriminologik tahlillar yoshlar jinoyatchiligi mamlakat jinoyatchilik strukturasida asosiy o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli jinoyatchilik profilaktikasida yoshlarni band qilish, oilaviy tarbiyani mustahkamlash, huquqiy ongni rivojlantirish hamda salbiy axborotlarning ta’sirini kamaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilani mustahkamlash mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat huquqiy choralar yetarli emas. Mazkur muammoni hal etishda kompleks yondashuv talab etiladi.

Birinchidan, aholining bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni qisqartirish orqali jinoyatchilikning iqtisodiy ildizlarini kamaytirish mumkin.

Ikkinchidan, ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish zarur.

To‘rtinchidan, oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularni turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Jinoyatchilikning kelib chiqishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning shakllanishiga ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, migratsiya va ta'lim muammolari jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini tashkil etsa, oilaviy tarbiya kamchiliklari, huquqiy madaniyatning pastligi va ma'naviy qadriyatlarining zaiflashuvi uning ma'naviy-axloqiy omillari sifatida namoyon bo'ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat huquqiy choralar yetarli emas. Mazkur muammoni hal etishda kompleks yondashuv talab etiladi.

Birinchidan, aholining bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish orqali jinoyatchilikning iqtisodiy ildizlarini kamaytirish mumkin.

Ikkinchidan, ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish zarur.

To'rtinchidan, oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish mumkin. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurashishda iqtisodiy islohotlar, samarali ijtimoiy siyosat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda huquqiy targ'ibotni uyg'un holda amalga oshirish zarur. Faqat shunday kompleks yondashuv orqaligina jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatchilik darajasini kamaytirishga erishish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Har bir bola va har bir yosh bizning o'z farzandimizdir. Ularning giyohvandlik va jinoyatchilik domiga tushib qolishiga aslo yo'l qo'ymaymiz. Yoshlarimizda kuchli ma'naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz." bu fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurash faqat jazo choralari qo'llash bilan emas, balki yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, oilani mustahkamlash, huquqiy madaniyatni oshirish va salbiy axborotlarning ta'sirini kamaytirish orqali amalga oshirilishi lozim. Shu bois jinoyatchilik profilaktikasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
4. Ismoilov I. **Kriminologiya**. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
5. Rustamboyev M.H. **Kriminologiya**. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.
6. Avanesov G.A. **Kriminologiya**. – Moskva: Yuniti-Dana, 2020.
7. Dolgova A.I. **Kriminologiya**. – Moskva: Norma, 2021.
8. Gurov A.I. **Kriminologiya va jinoyatchilik profilaktikasi**. – Moskva: Prospekt, 2020.
9. Gilinskiy Y.I. **Sotsiologiya deviantnogo povedeniya**. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019.
10. BMTning jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov bo'yicha hujjatlari. – Nyu-York, 2022.

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA EKSPRESSIV VA BILVOSITA NUTQIY AKTLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI <i>Akramova Surayo Renatovna</i>	198
TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) AS AN EFFECTIVE APPROACH TO DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ESL LEARNERS <i>Abdullayeva Sevinchoy Otanazar qizi</i>	204
ONA TILI VA TABIIY FAN MATNLARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI <i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	209
ZAMONAVIY RUS TILI SO'Z YASALISHIDAGI INNOVATSION JARAYONLAR: TENDENSIYALAR VA LINGVISTIKA FANINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Umarova Firuzbonu Jamshidbek qizi</i>	214
DEVELOPING EFL LEARNERS' SPEAKING AND WRITING SKILLS THROUGH BLENDED LEARNING <i>Achilova Risolat A'zamovna, Ugiloy Isakova Rustamjon kizi</i>	221
BADIIY MATNDA NUTQIY AKTLARNING ANTROPOSENTRIK TALQINI <i>Akramova Surayo Renatovna</i>	228
METHODOLOGY FOR DEVELOPING LINGUOCULTURAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS THROUGH FAIRY TALES <i>Djabborova Feruza Azamovna</i>	232
Ijtimoiy fanlar	
JINOYATCHILIK KELIB CHIQISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SABABLARI, MA'NAVIY-AXLOQIY OMILLARI <i>Xudoyberdiyeva Dilnoza Farxodovna</i>	239
TARBIYA DARSLARIDA HADISLARDAN FOYDALANISH ORQALI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH <i>Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna</i>	245
Aniq va tabiiy fanlar	
BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA <i>Usmonova Mubashira Suvonovna, Saidova Lobar Jaxonovna</i>	251
BIOLOGIYA DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QUVCHILARNING EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI <i>Ibragimova Sitorabonu Akmal qizi</i>	258